

FORS TILIDA “MAZA-TA’M SIFATLARI+OT” MODELI ASOSIDA YASALGAN DETERMINATIV QO‘SHMA SO‘ZLAR

Begaliyeva Xadicha Dilmurod qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Magistratura fakulteti Lingvistika (fors)

2-kurs magistranti

g-mail: begaliyevahadica@gmail.com

Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Nodir Nuriddinov

Annotatsiya: *Ushbu maqola fors tilida determinativ qo‘shma so‘zlar haqida ma’lumot berish va “maza-ta’m sifatlari+ot” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlarni o‘rganishga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *determinativ qo‘shma so‘zlar, sifat, ot, yangi so‘zlar.*

Abstract: *This article aims to provide information about compound words in Persian and dedicated to the study of determinative compound words formed based on the “adjectives describe taste+noun” model.*

Key words: *determinative compounds, adjective, noun, new words*

Kirish

Turli tillardagi qo‘shma so‘zlarning xususiyatlari haqida ko‘plab asarlar yozilgan hamda dunyo olimlarining qo‘shma so‘zlar, xususan, determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishi va uning o‘rganilganlik, aniqlik darajasi haqida ma’lum bir to‘xtamga kelinmagan. Shunday bo‘lsa-da, turli olimlar tomonidan qo‘shma so‘zlar bo‘yicha bir qancha izlanishlar olib borilgan va ulardan turli xil ta’riflar taqdim etilgan. Quyida bir qancha olimlarning nazariy qarashlarini ko‘rishimiz mumkin:

“Qo‘shma so‘z – ikki yoki undan ortiq o‘zak (negiz)lar yoki leksik (noaffiks) morfemalarning birikuvidan iborat yoki so‘z birikmalarining leksikalizatsiyasi natijasida hosil bo‘lgan murakkab birlik (kompozit)”¹.

Mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birdan ortiq leksemani qo‘shish bilan so‘z yasalishi kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deyiladi ².

Eron tilshunosligida ham kompozitsiya jarayoni bir xil baholanmaydi. Bir guruh olimlar qo‘shma so‘zni uning yaxlitligidan kelib chiqib tadqiq etsalar, boshqalari esa bu holatni e’tibordan chetda qoldirib, qo‘shma so‘z komponentlarining morfologik tarkibini tavsiflash bilangina cheklanadilar ³.

Ma’lumki, determinativ qo‘shma so‘zlar kompozitsiya usuli orqali yasaluvchi qo‘shma so‘zlardir. Determinativ qo‘shma so‘zlar o‘z tarkibidagi komponentlarining o‘zaro

¹ Нуриддинов Н.Н. Форс тилида копулятив кўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари Монография. – Т, 2020. – 42 с

² Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.

³ Чавчавадзе Т. А. Именное словосложение в новоперсидском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1981. – Б. 16-30.

munosabatiga ko‘ra hokim va tobe so‘z orqali bog‘lanuvchi so‘z birikmalarini eslatadi. Bu kabi qo‘shma so‘zlarda bir komponent boshqa bir komponent ma‘nosini aniqlashtiruvchi bo‘lib, ular o‘zaro birgalikda yagona tugal ma‘noni anglatib keladi ⁴.

Fors tilida mahsuldor va keng tarqalgan qo‘shma so‘zlar haqidagi tasavvurlar aniqdek tuyulsa-da, lekin so‘z yasallishining bu bo‘limi ko‘plab lingvistik bahslar va nazariy tadqiqotlarga asos bo‘lib kelmoqda. Qo‘shma so‘zlarni aniqlash va ularni o‘rganishda tadqiqotchilar turli mezonlarga asoslanadilar. Ba‘zilar qo‘shma so‘zlarga faqat shakl nuqtayi nazaridan yondoshsalar, boshqalar esa semantik va funksional belgilariga ko‘ra tadqiq etadilar. Eron tilshunosligida qo‘shma so‘z yasallish jarayoni bir xil baholanmaydi⁵.

Determinativ qo‘shma so‘zlarda bir komponent ikkinchisining ma‘nosiga aniqlik kiritib tobe so‘z sifatida keladi. Masalan: خانه صاحب *sāhebxāne* “uy egasi”, خورده مالک *xordemālek* “kichik tadbirkor” kabi. Tadqiqot ishida xuddi shu usulda yasalgan qo‘shma so‘zlarning “maza-ta‘m sifatleri+ot” modeli ko‘rib chiqiladi. Qo‘shma so‘zlarni tadqiq etish jarayonida fors tilida aynan shu model asosida bir qator yangi determinativ qo‘shma so‘zlar yasallishi ma‘lum bo‘ldi.

Manbalar tahlili natijasida “maza-ta‘m sifatleri+ot” modeli asosida yasalgan 32 ta determinativ qo‘shma so‘zlar aniqlandi:

“تلخ+ot” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar

تلخ *talxru* “xo‘mraygan”, “badqovoq”; تلخ زبان *talx zabān* گفتار *talx goftār* “tili zahar”, “zaharxanda”; تلخ کام *talx kām* “baxti qora”, “ranjigan”; تلخ مزاج *talx mazāj* “asabiy”, “serzarda”, “tajang”; تلخ مزه *talx maze* “taxir”, “achchiq”.

Quyida ushbu sifat bilan birikkan va yaxlit ma‘no ifodalagan determinativ qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan jumalardan namunalar keltirilgan:

هرگز ندیدم که به رسم پیران بی ذوق و تمیز و سالخوردگان ترشرو و **تلخ زبان** ... ذوق و شور جوانان را...
Hargez nadidam-ke be rosm-e pirān-e bizouq va tamiz va sāl xordegān-e toršru va talx zabān...zouq va šur-e javānān-rā...fortunešānad “Men hech qachon yoshlarning ishtiyoq va shijoatini o‘chirib yuboradigan bezavq va .. qariyalar va yuzlari burishgan va **tili achchiq** keksalarni ko‘rmaganman” [3:1869].

در این مدت روحیه اش از جهت برخورد با زندانبان های **تلخ صورت** و میر غضب های دوزخی... ضعیف
Dar in moddat ruhiye-aš az jehat-e barxord bā zendānbānhā-ye talx surat va mir yazabhā-ye dozaxi...zaif šode bud “Bu vaqt ichida ruhiyati qamoqxonachilarning va do‘zaxiy mirg‘azablarning **sovuq chehralari** bilan to‘qnash kelganidan...zaiflashgandi” [3:1869].

لب های او طعم کونه خیار می داد، **تلخ مزه** و گس بود
Lab-hāye u ta‘m-e kune-ye xiyār mi-dād, talx maze va gas bud “Uning lablari bodring uchi ta‘mini berardi, **achchiq** va nordon edi” [3:1870].

“شور+ot” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar

Fors tilida شور *šur* “sho‘r” degan sifat bilan bir nechta DQS lar yasallishi aniqlandi:

⁴ Рубинчик Ю. А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М. 2001. – С. 161.

⁵ Алимova X.З. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознании // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции. – Москва, 2010. – С. 13.

شوراب *šurāb* “sho‘r suv”; شوراختر *šuraxtar*, شوربخت *šurbaxt*, شورطالع *šurtāle* “baxtsiz”, “sho‘r peshona”; شورچشم *šurčešm/ šurčašm* “yomon “ko‘z”li/nazarli”; شوردست *šurdast* “iflos”, “nopok”; شوردولت *šurdoulat* “baxtsiz”.

Quyida ushbu determinativ qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan gaplar keltirilgan:

من شوربخت *Man-e šurbaxt*, *šeš ruz tamām az buy-e sahar tā tang-e yorub aray rixtam* “Men sho‘rlik olti kun tong sahardan to kechgacha tez to‘kibman”[3:4604].

سفارش می کرد که... از هر شورچشمی که مرا ببینند و ماشاءالله نگوید، یک نخ از تنبانش بگیرند و... در آتش اسپند بسوزانند *Sefāreš mi-kard-ke... az har šurčešmi ke marā bebinand va mašaallāh naguyad, yek nax az tonbānaš begirando...dar ātaš-e Espand besuzānand* “Buyurardiki,... meni ko‘rgan va ma shaa Alloh (Alloh har narsaga qodir) demagan har bir yomon nazarlining kiyimlaridan bir ip oladilar va... Isfand olovida yondiradilar”[3:4604].

“ot+ترش” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar

ترش مزاج *tor(o)šmazāj*, ترش طبع *tor(o)štāb*, ترش رو (ی) *tor(o)šru(y)* “badjahl”; ترش مزه *tor(o)šmaze* “nordon”; “xo‘mraygan”, “badqovoq”, “qovog‘i soliq”;

Quyida ترش *tor(o)š* “nordon” sifati orqali yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan jumlar berilgan:

در میان گروهی از مردمان تلخ ترشرو گیر کرده بودم *Dar miyān-e goruhi az mardomān-e talx-e tor(o)šru gir karde budam* “Badqovoq va g‘azabli odamlar guruhi o‘rtasida qolib ketgan edim”[3:1700].

“ot+شیرین” modeli asosida yasalgan determinativ qo‘shma so‘zlar

شیرین بیان *širinbayān* 1. “xushxulq”; 2. “xushxulq”; شیرین اداء *širinadā* 1. “xushtakallum”, “shirinso‘z”; 2. “xushxulq”; شیرین حركات *širinharakāt* “xush qiliqli”, “xushxulq”; شیرین دهان *širindahān*, شیرین زبان *širinzabān*, شیرین مقال *širinmayāl*, شیرین سخن *širinsoxan* “shirinso‘z”; شیرین شمایل *širinšamāyel* “mayin”, “yumshoq”, “nozik”; شیرین طبع *širintab* “odobli”, “yuvosh”, “mo‘min qobil”; شیرین کار *širinkār* 1. “hazilkash”, “quvnoq”; 2. “bezori”, “bachkana”, “nojo‘ya harakat” (so‘zlashuvda); شیرین کام *širinkām* “baxti kulgan”, “omadli”.

Quyida شیرین *širin* “shirin” sifati bilan birikib, yangi ma‘no hosil qilgan determinativ qo‘shma so‘zlar ishtirok etgan gaplarga misollar keltirilgan:

جعفر... کودک بسیار باهوش شیرین زبان سخن دانی بود *Ja‘far... kudak-e besyār bāhuš širinzabān soxandāni bud* “Ja‘far... juda aqlli, shirinso‘z va suxandon bola edi”[3:4649].

به صورت کاغذ مشق یکی از خطاطان شیرین قلم... در می آمد *Be surat-e kāyaz mašq-e yeki az xattātān-e širinyalam... dar mi-āmad* “Qog‘oz yuzida husnixatli xattotlardan birining mashqi... paydo bo‘lardi” [3:4650].

یادم هست وقتی بچه بودی... با آن سگ شیرین کار که در خانه ما بود و جای سگ گله را گرفته بود، خیلی دوستانه حرف می زد *Yādam hast vaṭti bačē budi... bā ān sag-e širinkār-ke dar xāne-ye mā bud va jāy-e gale-rā gerefte bud, xeyli dustāne harf mi-zadi* “Esimda, bolaligingda o‘sha bezori it uyimizni itlar galasiga aylantirganda unga juda mehribonlik bilan gaplashganding” [3:4650].

سخران شیرین سخن آزادی را... کشتند Soxanrān-e **širinsoxan**-e Āzādi-rā... koštand
“Ozodiyning **shirinso‘z** suxandonini... o‘ldirishdi” [3:4649].

Xulosa

1. Determinativ qo‘shma so‘zlarda tobe-hokim munosabati ifodalanib, bir so‘zning ikkinchisini aniqlab kelishi natijasida hosil bo‘lishi va birgalikda ma’lum bir so‘z turkumiga oid yangi tushunchani ifodalash uchun xizmat qilishi dalillandi.

2. Mavzuga oid to‘plangan misollar tahlilida shu aniq bo‘ldiki, determinativ qo‘shma so‘zlar yasalishida sifat so‘z turkumlari ham salmoqli o‘rin egallaydi va nafaqat badiiy uslubda, balki ilmiy nomlashda ham keng foydalaniladi (masalan: شیرین مقال *širinmayāl* “shirinso‘z”, شیرین طبع *širintab* “odobli” so‘zlari faqat badiiy uslubga xos, شیرین بیان *širinbayān* 1. “qizilmiya” (botanikaga oid); 2. “shirinmiya” (farmatsevtikaga oid)).

3. Ushbu tadqiqotda “maza-ta‘m sifatлари+ot” modeli asosida jami **32 ta** determinativ qo‘shma so‘z o‘rganib chiqildi va ularning ba‘zilari olimlarning tadqiqotlarida turli jihatdan guruhlariga ajratilgan, shunday bo‘lsa-da ularning determinativ qo‘shma so‘z ekanligiga e’tirozlar kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Рубинчик Ю. А. Грамматика современного литературного персидского языка. – М, 2001.
1. Персидско-русский словарь: В 2-х томах под ред. Ю.А.Рубинчика. – М.: Русский язык, 1985. – 800 с., 848 с.
 2. Anvari H. Farhang-e bozorg-e soxan. Tehron, 1381.
 3. Чавчавадзе Т. А. Именное словосложение в новоперсидском языке. – Тбилиси: Мецниереба, 1981. – Б. 16-30.
 4. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 30.
 5. Nuriddinov, N., & Nizamova, F. (2022). Theoretical views of Iranian linguists on the classification of word-combinations. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 86-90).
 6. NURIDDINOV, N., & AKMALOV, S. (2022). THE ROLE OF IRANIAN ACADEMIES OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF PERSIAN LEXICON. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (6), 140-143.
 7. Нуриддинов Н.Н. Форс тилида копулятив қўшма сўз ва эркин копулятив сўз бирикмаларининг дистинктив белгилари Монография. – Т, 2020.
 8. Алимова Х.З. Вопросы классификации сложных слов в иранском языкознании // Восточные языки и культуры: Материалы III Международной научной конференции. – Москва, 2010
 9. Ганиев А.Г. Очерки по глагольной фразеологии литературного пушту. – Т, 1985.

10. Abduvaliyeva O‘. Pashtu tilida kopilyativ qo‘shma so‘zlarning struktur-semantik tasnifi PhD dissertatsiyasi. – T, 2023.
11. Л. С. Пейсиков Очерки по словообразованию персидского языка. – М. 1973.
12. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. – Т.: Фан, 1975. Т.1.